



Problems and their solutions in the process of developing independent work competence of students in the credit-module system

Zulkhumor MIRZAYEVA¹

Navoi State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

15 February 2024

Keywords:

credit module,
competence,
method,
independent work,
independent education,
motivation,
syllabus.

ABSTRACT

This article, dedicated to the work on the credit-modular system, examines the problems that arise in the development of independent labor competence of students, their solutions and recommendations based on the conclusions obtained as a result of research and analysis of the literature. Information is also provided on the stages of understanding and implementing the process of independent work, supported by facts.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1/S-pp70-74>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kredit-modul,
kompetensiya,
metod,
mustaqil ish,
mustaqil ta'lim,
motivatsiya,
syllabus.

Ushbu maqolada kredit-modul tizimida ishlash jarayonida, talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar, ularning yechimlari, adabiyotlar tahlilidan olingan xulosalar asosida yechimga tavsiyalar, mustaqil ishlash jarayonini tushunib yetish, bajarish bosqichlari haqida ma'lumotlar faktlar bilan yoritiladi.

¹ PhD student, Navoi State Pedagogical Institute. E-mail: Zulxumorm.1990@gmail.com

Проблемы и их решения в процессе развития компетентности самостоятельной работы студентов в кредитно-модульной системе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

кредитный модуль,
компетентность,
методика,
самостоятельная работа,
самостоятельное
обучение,
мотивация,
учебная программа.

В данной статье, посвященной работе по кредитно-модульной системе, рассмотрены проблемы, возникающие при развитии самостоятельной трудовой компетентности студентов, их решения и рекомендации, основанные на выводах, полученных в результате исследования и анализа литературы. Также представлена информация об этапах понимания и реализации процесса самостоятельной работы, подкрепленная фактами.

Ta'lim olish – inson ko'rish, eshitish, taqlid qilish, takrorlash orqali ma'lumotlarni, dunyo, atrof- muhit haqida o'ziga qiziq bo'lgan mavzularni qabul qilib, eslab qolish jarayoni hisoblanadi. Ishlash faoliyatimiz davomida doimiy izlanib, yangi bilimlarni kashf qilamiz. Buning uchun mustaqil ishlash juda muhim jarayonni talab qiladi. Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim tizimi bo'lmish "kredit-modul tizimi" da talabalarning 70% ta'lim olishi mustaqillikka qaratilgan. Ya'ni, mustaqil ta'lim, mustaqil ish uchun bajariladigan topshiriqlar.

Jane Ngning "What is education topic" blogida ta'limning ahamiyati, ta'limning muhimligining quyidagi besh asosiy sabablari: shaxsiy o'sish, yaxshi imkoniyat, jamiyatni tushunish, muammoni hal qilish, innovatsiya haqida fikr yuritadi.

➤ Shaxsiy o'sish-atrof muhitni anglaydi, shaxsiy fikrga ega bo'ladi, dunyoni tushunishga yordam beradi;

➤ Yaxshi bilim egasi yaxshi mutaxassis bo'ladi, bu o'z o'zidan yaxshi yashash imkoniyatini beradi;

➤ Jamiyatni tushunish- bu turli xil jamiyatda sodir bo'ladigan voqea hodisalarga hissiy jihatdan munosabat berishdir;

➤ Muammolarni hal qilish – bilimli inson doimo muammolarini hal qilish qobiliyatiga ega insondir;

➤ Innovatsiya – bilimlar mahsuli. Kashfiyotlar- o'rgangan bilimning namoyon qilinishidir;

Kredit-modul tizimida talabalarning fanlardan mustaqil ta'limda ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda ba'zi muammolar kelib chiqmoqda.

Adabiyotlar tahlili va tajriba-sinov ishlarining natijalariga tayangan holda ba'zi muammolarning yechimlarini tahlil qilamiz.

1. Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantira olmasliklarining asosiy sababi mustaqil ishlay olish qobiliyatlari to'liq shakllanmaganligidadir.

2. Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantira olmasliklarining keyingi sababi – fanni chuqur anglamaganligi va topshiriqlar tushunarli emasligi oqibatida fanga qiziqmaslik.

3. Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantira olmasliklarining navbatdagi sababi – o'rganuvchilarning mustaqil ishlari vaqtida baholanmasligi va yetarli darajada fikr mulohazalar berilmasligi.

Kredit modul tizimida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar yuqorida berildi. Mustaqil ishlay olish qobiliyatlari, ko'nikmalarini hosil qilish, uni rivojlantirish zarurdir.

Mustaqil ta'limda zarur bo'lgan bilim olish qobiliyat va ko'nikmalarga quyidagilar kiradi:

- “O'z-o'zini anglash va nimani o'rganishi muhimligini tahlil qilish.
- Ta'lim strategiyalarini bilish va rivojlantirish.
- Jamoa bo'lib ishlash.
- Shaxs o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilishi.
- Motivatsiyaning ahamiyatini anglash.
- IT ko'nikmalarining rivojlanganligi.
- Mavjud resurslar va materiallar bilan tanishish.
- Vaqtni boshqarish (time management).
- Tadqiqot qobiliyatlarining mavjudligi.
- Qaror qabul qilish qobiliyati. (Ciel Project).

O'z-o'zini anglash, ya'ni qiladigan ishlarining maqsadlarini nimani o'rganish muhimligi haqida reja tuzib olish kerakligi. Masalan: o'qish va yozish amaliyoti fanidan qanday nazorat turlari borligi, mustaqil ish uchun qanday topshiriqlar berilganligi, auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajarilishi kerak bo'lgan mustaqil ta'limni aniqlab olish malakasini shakllantirish muhimdir.

O'z-o'zini anglash nima?

“O'z-o'zini anglash – bu o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, qadriyatlari, e'tiqodlari va xatti-harakatlarini tushunishdir. Shaxs, ya'ni bilim oluvchi o'zi kimligini, nimani xohlayotganligini, o'zini qanday his qilayotganligini va nima uchun qilayotganligini tushunishni anglatadi.” Shu o'rinda mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda hissiy kompetensiyaning ham ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki inson oldiga biror maqsad qo'yadi, shu maqsadga erishish yo'lida juda ko'p hissiy kechinmalarni boshidan o'tkazadi. O'zini tahlil qila oladi, o'zidan ruxlana oladi va motivatsiya berish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. O.E. Frantsuzova “Shaxsning emotsional kompetensiyasi” mavzusidagi maqolasida emotsional kompetensiyaning ta'lim olish jarayonida tutgan o'rni haqida tushunchalar bergan va emotsional kompetensiyaning tarkibiy qismlarini berib o'tgan. Ular: o'z o'zini anglash, o'zini boshqarishdir. “O'z-o'zini anglash hissiy kompetensiyaning asosiy elementi hisoblanadi. O'z-o'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan odam o'zining kuchli va zaif tomonlarini hamda his-tuyg'ularidan qanday xabardor bo'lishni biladi.

O'zini boshqarish o'z-o'zini anglashning natijasidir. Bu xususiyat bilan ajralib turadigan odam nafaqat o'zini biladi, balki o'zini va his-tuyg'ularini boshqarishni ham o'rgandi. Axir, bizning his-tuyg'ularimiz biologik impulslar tomonidan boshqarilishiga qaramay, biz ularni yaxshi nazorat qilishimiz mumkin. O'z-o'zini boshqarish hissiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir. Bu odamlarga “o'z his-tuyg'ularining asiri” bo'lmaslikka imkon beradi. Bunday odamlar har doim nafaqat o'zlarining his-tuyg'ularini jilovlabgina qolmay, balki ularni foydali yo'nalishga ham yo'naltira oladilar.” Bu kompetensiyani rivojlantirish qiyin, ammo aynan shu ish eng katta natijalarni beradi, shaxsiy samaradorlikni oshiradi. Hissiy kompetensiyani rivojlantirish vositalari kitoblar, treninglar, murabbiylikdir. Ammo shuni ham yodda tutish kerakki, hissiy moslashuvchanlikning yuqori ko'rsatkichlari hech qachon professional kompetensiyani

yoki barcha ijobiy va salbiy tomonlarni o'lchash va ob'yektiv xulosalar chiqarish qobiliyatini almashtirmaydi.

Guruh bo'lib ishlash orqali rivojlanadigan qobiliyatlar

Muloqot qilishni rivojlantiradi	Ijobiy va salbiy tomonlari mavjud
Yetakchilik qilishni rivojlantiradi	Ijobiy va salbiy tomonlari mavjud
Ijodkorlikni rivojlantiradi	Ijobiy va salbiy tomonlari mavjud
Tashkilotchilikni rivojlantiradi	Ijobiy va salbiy tomonlari mavjud
O'zaro hamkorlikni oshirish	Ijobiy va salbiy tomonlari mavjud

Ular muloqot qilishni rivojlantiradi, yetakchilik qilish, ijodkorlikni rivojlantirish, tashkilotchilik va o'zaro hamkorlikni oshirishga yordam beradi. Guruhdagi muloqot qilish qobiliyatlari, shuningdek, guruh a'zolariga bir-birining g'oyalarini tushunishga yordam beradi. Barcha o'z fikrlarini mustaqil ayta oladi, muloqot qila oladi, fikrlarini boshqa a'zolar tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi bilan yanada o'ziga ishonchi ortadi.

Guruhda ishlash orqali rivojlantirish kerak bo'lgan yana bir qobiliyat – bu yetakchilik qobiliyatidir. Bu har doim ham aniq bir shaxs qiladigan ishni anglatmaydi. Yetakchilik qobiliyatlari jamoaning barcha a'zolarining motivatsiyasini va umumiy maqsad sari harakat qilishini ta'minlaydi. Buni amalga oshirishning turli xil usullari mavjud. Shu o'rinda, kuchli yetakchilik qobiliyatlari salbiy bo'lishi ham mumkin. Ishni bajarishni ta'minlash uchun har bir vazifani shaxsan 1 ta talaba egallashni xohlaganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashni kuzatish mumkin. Keyingi qobiliyatlardan biri bu ijodkorlikdir. Kuchli ijodiy qobiliyatlar, innovatsion g'oyalar va muammolarni hal qilishda guruh bo'lib ishlash foyda keltiradi. Shuningdek, tashkilotchilik qobiliyatlar ham guruh bo'lib ishlarni bajarish uchun juda muhimdir. Unda ya'ni, guruhda bir- birlarini fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi va g'oyalar asosida aniq harakatlar va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlarni bajarilishida tashkilotchilik qobiliyat egalari yetakchilik qiladi. So'nggi guruh bo'lib ishlashda shakllanadigan qobiliyat bu – o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatidir. Bunga turli xil sinfda va sinfdan tashqarida qilinadigan mustaqil ta'limda bajariladigan loyihalarni misol keltirish mumkin. Agar talabalarga qadimiy shaharlar to'g'risida prezentatsiya berilsa, hamkorlikda ishlash jarayonida har bir talabaning o'z vazifasi bo'ladi. Loyihaning kerakli ma'lumotlari, dizayni solishtirish, taqqoslash, o'xshatish yakuniy xulosalar berish notiqlik san'atidan foydalangan holda prezentatsiyani himoya qilinishi hamkorlikda hammaning ishda ulushini ko'rsatadi va bu ishlashda yaxshi natijalar beradi. Yuqorida mustaqil ishlashda guruh bo'lib ishlashning foydali yo'llari, qaysi qobiliyatlar shakllanganligi berib o'tildi. Biz guruh bo'lib ishlaganda salbiy taraflarini ham kuzatuvlar, o'rganishlar jarayonida aniqladik:

- Lider kishi ko'proq hamkorlikda ishlayotganda a'zolariga oxirgi gapni aytishi, bosim o'tkazishi oqibatida to'g'ri javoblarni, fikrlarni eshitilmasligiga olib keladi;
- Ba'zi hollarda ish teng taqsimlanmasligi kuzatiladi. Kimdir ko'proq, kimdir kamroq hissa qo'shadi ishlash jarayonida lohiya ishlariga.
- Ko'pchilik bo'lgani uchun oddiy muammolarni ham yechish uchun ko'p vaqt sarf qilinadi.

Mazkur tadqiqot ishida kredit-modul sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar nazariy

bilimlar, tajriba-sinov ishlari natijasida o'rganilib, aniqlandi. Shu muammolarni hal etishda ba'zi tavsiyalar sihlab chiqildi. Ulardan talabalar qanday, mahorat, qobiliyatlarni rivojlantirishlari kerakligi, ularning afzalligi, mustaqil o'z ustida ishlash jarayonining ijobiy va salbiy tomonlarini misollar yordamida asosladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ciel Language Support Network "Assessment and independent language learning" Ciel Project, 2000. <https://web-archive.southampton.ac.uk/www.llas.ac.uk/resources/gpg/1407.html>
2. Kendra Cherry, Medically reviewed by Rachel Goldman, PhD, FTOS "What Is Self-Awareness? Development, Types, and How to Improve" 2023 <https://www.verywellmind.com/what-is-self-awareness-2795023>
3. Frantsuzova O.E. Shaxsning emotsional kompetensiyasi- Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(21), 12–14. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/3440>. 2016, 114-117 b
4. <https://edu02.ru/uz/kompetentnaya-lichnost-professionalnaya-kompetentnost-cheloveka-kak/>
5. Chloe Cheney "What are learning styles" Medium. 1, 2, p 2021.